

## O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Laziz Yarashovich Olimov

Mavluda O'tkir qizi Bahronova

olimovlaziz82@gmail.com

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy psixologik ahamiyati sohasida olib borilgan izlanishlar asosida to'plangan ma'lumotlarga tayangan holda ilmiy mushohada yuritilgan bo'lib, asosan xorij psixolog olimlarining bu boradagi psixologik qarashlari o'rtaqidagi aloqadorlik tahlil qilinadi, muammoni o'rganishga oid tadqiqot metodi asosida olingan natijalar bo'yicha xulosa beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'smir xulq-atvori, ma'naviyat, ahloqiy normalar, qadriyat.

## Socio-psychological features of the formation of adolescent spirituality

Laziz Yarashovich Olimov

Mavluda O'tkir qizi Bahronova

olimovlaziz82@gmail.com

Bukhara State University

**Abstract:** This article is a scientific observation based on the data collected on the basis of research in the field of social psychological significance of moral norms in adolescents, mainly analyzes the relationship between the psychological views of foreign psychologists in this area. a conclusion is made on the results obtained on the basis of the research method.

**Keywords:** adolescent behavior, spirituality, values, moral norms

Shaxsning axloqiy jihatdan intensiv tarkib topishi, axloqiy ongining shakllanishi, hatti-harakatlarning etik normalarini o'zlashtirishi o'smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikalaridandir. O'smirlik yoshi - o'z hatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashning, ma'naviy e'tiqod, prinsip hamda ideallarni baholash mulohazalari tizimining tarkib topish davridir. Agar bola kichik mifik yoshi davrida kattalarning, o'qituvchilarining va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan yoki o'zining tasodifiy, impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning

uchun o‘z hatti-harakatlarining prinsipi, o‘zining qarashlari, e’tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo‘yiladi.

O‘smirning qanday axloqiy tajriba orttirishiga, qanday axloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o‘smirlilik yoshi axloqiy jihatdan intensiv rivojlanish yoshi bo‘lganligi tufayli ko‘pincha o‘smir ongida, tarbiyachi o‘quvchi ongiga singdirmoqchi bo‘lgan hislatlarga qarama-qarshi axloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin.

Biz bolani mehnat bilan jazolash mumkinmi, deb tez-tez muzokara qilamiz. Bu muammoni o‘smirga nisbatan ko‘yadigan bo‘lsak, u yanada ortikroq ahamiyat kasb etadi. Chunki, xuddi o‘smirlarda axloqiy maslaklarning ma’lum tizimi ham, shu jumladan mehnatga munosabat ham tarkib topa boshlaydi. Ba’zi odamlar mehnat bilan jazolash mumkin deb qaraydilar va bu holatni oqlashga harakat qiladilar. Ammo, kishilarga va mehnatga bo‘lgan munosabat tarkib topa boshlagan o‘smir bu masalani tushunishga urinib ko‘radi. U o‘z tajribasidan biladiki, katta kishilar hech qachon biron yaxshi narsa bilan jazolanmaydilar. Modomiki, jazolar ekanlar, demak biron yoqimsiz narsa bilan jazolaydilar. Agar mehnat bilan jazolasalar, unday paytda o‘smirning ongida mehnat qandaydir mudhish narsa degan ma’lum tasavvur yuzaga kela boshlaydi. Biz o‘smirning ongiga mehnat shon-sharafdir, mardlik va qahramonlikdir degan tasavvurni singdirishimiz kerak deb hisoblaymiz. Lekin bu so‘zlar quruq gap bo‘lib qoladi, o‘smirlar ongida boshqa maslaklar mustahkamlanib qoladi.

Psixologlar o‘z oldilariga o‘smirlar ma’naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o‘rganish vazifasini ko‘yanlar. Psixologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘smirlar ma’naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko‘rsatadi. O‘smirlarning ko‘pchilik qismi yoshlariga munosib ma’naviy tushunchalarni to‘g‘ri tushunadilar.

E’tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog‘langan holda o‘smirlarning axloqiy ideallari xam yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar yetarli darajada chuqur mazmundor, faoldir va bu ideallar o‘ziga xos axloqiy namuna bo‘lib xizmat qiladi, o‘smir esa hatti-harakatlarini ana shu namuna bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o‘smirlar uchun odatda qandaydir bir kishi ideal bo‘ladi. Bu odam o‘smir yuksak darajada baholaydigan sifatlarni o‘zida gavdalantirgan bo‘ladi. Ko‘pincha bunday ideal ota-onalar, o‘qituvchilar yoki yaxshi ko‘radigan kitobidagi va kinofilmidagi qahramonlardir. Katta yoshdagi o‘smirlarda ideal sifatlar majmui umumlashgan obrazlar sifatida yuzaga chiqa boshlaydi.

L.N.Desev o‘smirlarning axloqiy tushunchalari mazmunini o‘rganib, ularning axloqiy kategoriyalarni tushunishlari ko‘pincha yuzaki formal xarakterga ega ekanligini ko‘rsatib berdi. Psixologlar bir tomonidan o‘smirlarda yuzaga kelayotgan e’tiqodlar, axloqiy g‘oyalar, tushunchalar va ustakovkalar, ikkinchi tomonidan ularning

hatti-harakatlari, qiziqishlari, aniq xulq-atvorlari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildilar. A.L.Maliovanov ana shu nuqtai nazardan o‘smirlarni to‘rt guruhga ajratgan: 1) o‘z hatti-harakatlarida ularning o‘zlari tomonidan yaxshi anglagan ijobjiy axloqiy normalarga tayanadigan, so‘zi bilan ishi o‘rtasida farq bo‘lmaydigan o‘smirlar; 2) axloqiy tushunchalarning taraqqiyot darajasi pastligi bilan qiliqlari mos keladigan o‘smirlar; 3) kichkinagini o‘smirlar guruhi hatti-harakatlarning axloqiy normalariga doir o‘zining yaxshi bilimi bilan ajralib turadi, lekin bu bilimlarga mos ravishda harakat qilishni o‘ziga lozim deb biladigan; 4) o‘zlariga ma’lum bo‘lgan axloq talablari bilan kundalik hatti-harakatlari o‘rtasidagi aloqani xali ko‘ra olmaydigan, tushunmaydigan o‘smirlar. Ularning ko‘philigi ayrim axloqiy kategoriyalarning mazmunini; yetarli darajada anglamaydilar.

Ko‘pgina axloqiy tushunchalarni noto‘g‘ri anglab, shaxsning ayrim sifatlarini xato tushunib va baholab, qaram bo‘lmaslik va mustaqillikka intilib, o‘z irodasini ko‘rsatishga noto‘g‘ri harakat qilib, ayrim o‘smirlar ba’zan ataylab o‘zlarida ob’ektiv jihatdan salbiy bo‘lgan sifatlarni rivojlanadirilar va o‘zlaridan ijobjiy sifatlarni siqib chiqaradilar. Tarbiyaning vazifasi mohirlik bilan o‘smirlarning noto‘g‘ri qarashlarini yengish, ishning mohiyatini tushuntirish va o‘smirlarning adashishlariga yo‘l ko‘ymaslikdan iboratdir. Ammo, bu ishni zerikarli nasihatgo‘ylik va quruq jonga tegadigan aql o‘rgatishlar bilan emas, balki samimiy, chin qalbdan va do‘stona olib boriladigan suhbatlar bilan amalga oshirish kerak. Predmet o‘qituvchilari to‘g‘ri axloqiy tushunchalarni tarkib toptirishda o‘z fanlarining imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

Jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinci tomondan, ma’naviyat sohasidagi o‘zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarning miqyosiga, yo‘nalishiga va sur’atlariga jiddiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlari va alohida fuqarolar ongida o‘z in’ikosini topmoqda. O‘z navbatida mamalakatimizdagi islohotlar ko‘lami va sur’atlari ma’naviyatimizning ham tez sur’atlar bilan rivojlanishini, aksariyat hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojidan ildamroq va oldinroq yurishini taqozo etmoqda. Bunday vazifani bajarish uchun ma’naviyat yuksalishiga ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan baracha imkoniyatlarni ishga solish zarurarti sezilmoqda. Ayni paytda ma’naviyatni yuksaltirish, ayniqsa o‘smir yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish ko‘lami va sur’atlariga kuchli ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan psixologik omillarning imkoniyatlaridan yetarli foydalanimayapti.

Shaxsni ma’naviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga shirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning o‘smirlilik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma’naviyatning negizi bo‘lgan qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi. Shaxsning ma’naviy rivojlanishiga mana

shu davrda ozgina e'tiborsizlik qilinsa, u aksilijtimoiy yo'nalishga burilib ketishi, jamiyatimiz uchun yot bo'lgan mafkuralar, g'oyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Ma'naviy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun ma'naviyatning metodolog'i va umumiy jihatlarini aniqlab olish zarur. Bu yo'nalishda jahon va mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan. Ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog-olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologlari tomonidan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo'lmaydi.

Jahon psixologiya fanida, shu jumladan mamlakatimiz psixologiyasida ham, ma'naviy tarbiyaning psixologik jihatlari yetarli o'rganilmagan, shu yo'nalishdagi nazariy konsepsiylar va eksperimental tadqiqotlarning juda kamligi, ularda shaxs, shu jumladan, o'smir ma'naviy kamolotining ko'pgina psixologik jihatlari ochilmay kelmoqda.

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida mutlaqo e'tibor berilmagan ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalari mamlakatimiz olimlari diqqat markazidan joy ola boshladi. Bu muammolarga psixolog olimlarimizning ham e'tibori kuchaymoqda. Shu bilan birga psixologiyamizda shu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini hozirgi davr talablari darajasida deyish qiyin. Shaxsning murakkab tuzilmasida ma'naviyatning alohida o'rni aniqlanmagani, bu o'rin shaxs tuzilmasidagi birnecha tizimlar bilan bog'liq ekani uni tadqiq etishda murakkabliklarni vujudga keltirmoqda.

O'smirlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash ularning o'zlarini o'zları tarbiyalashga yo'naltirish bilqn qo'ib olib borilgandagina yuqori samarali bo'lishi mumkinligi haqidagi faraz ham o'z tasdig'ini topdi.

Shaxsning ma'naviy ahloqiy rivojlanishi jarayoni uning ma'naviy ehtiyojlari doirasi kengayishi, ideallari va qadriyatları yuksalishi bilan uyg'un tarzda kechadi. Shuning uchun o'smirlarning ma'naviy-ahloqiy ehtiyojlarini shakllantirish va mavjudlarini yuksaltirish orqali ma'naviy ahloqiy tarbiya samaradorligini oshirishga erishish mumkin. O'smirlarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashga kirishdan avval ularning shu jihatlarini aniqlash bo'yicha psixodiagnostika tadbirlari o'tkazish mutlaqo zarur. Psixologik tashxis natijalariga qarab o'smirlarni ma'naviy ahloqiy tarbiyalash bo'yicha aniq reja va dastur tuzish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayonidan ko'zdangan maqsadlarga faqat tarbiyani o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni bilan uyg'unlashtirilganda erishish mumkinligini hisobga olib, o'smir o'zini-o'zi tarbiyalashga yo'naltirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun o'smirlar ongida ma'naviy ahloqiy qadriyatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishini ta'mnlaydigan tadbirlarni amalga shirish maqsadga muvofiq. Jumladan, tarbiya

jarayonida o'smir irodasini va empatiya tuyusini rivojlantirishga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirish tavsiya etiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 600.
3. Olimov L, Avezov O. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. International Journal of Scientific & Technology Research. volume 9, issue 02, february 2020. P 2784-2786.
4. Olimov L.Ya, Maxmudova Z.M. Psychological peculiarities in stressful situations and social psychological features of coping behavior manifestation. "Science and Education" Scientific Journal. February 2022/ Volume 3 Issue 2. www.openscience.uz 1324-1333.
5. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
6. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
7. Z.Elov. Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o'rni va danning-kryuger effektipedagogik mahorat 2021/10/30 Номер 5 Страницы 143-144
8. Олимов Л.Я, Махмудова З.М. Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материали. Тошкент., 2021. –Б. 489-493.
9. Олимов Л.Я. Социально-психологический подход к исследованию конфликтов. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 379-381 ст.
10. Олимов Л.Я. Теоретические основы педагогической технологии. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2018 год, Выпуск 18. 163-165 ст.
11. Олимов Л.Я. Теоретический анализ проблемы креативности в психологии. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 23, 2021 г. С 237-241.
12. Олимов Л.Я., Жумаев Н.З. Педагогическое общение педагога со студентами. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2017 год, Выпуск 15. 198-203 ст.

13. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Диагностика Управленических Способностей. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 2, 2020 г. С 204-209.
14. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
15. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnalı. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
16. Элов З.С. Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences. 2(2021): EJLFAS 26-28
17. Элов З.С. Исследования причин условий, факторов суицидального риска. Евразийский юридический журнал. 7 (86) 2015. 310-312
18. Элов З.С. Причины суицидального поведения: социальные и асоциальные факторы. Вестник интергративной психологии 2016 14/112-115
19. Элов З.С. Профилактика самоубийств сотрудников овд. Вестник интергративной психологии. 2017 208-212
20. Элов З.С. Психологические особенности самоубийств среди сотрудников ОВД. Психология XXI столетия. 2020 401-403
21. Элов З.С. Суицид - ўз жонига қасд қилиш ижтимоий психологик муаммо сифатида. Conference on social and humanitarian research. International Conference on Social Humanitarian Research 17-18 th September, 2021 Poland 188-189.
22. Элов З.С. Суицидал уринишларни содир этишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). Psixologiya. 2(18) 2015. 82-87
23. Элов З.С. Суицидал хулқ шаклланиши ижтимоий-психологик муаммо сифатида (ички ишлар идоралари ходимлари мисолида). Psixologiya. 3(23) 2016. 62-72
24. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
25. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 22, 2021 г. С 233-237.
26. Elov Z.S. Causes and analysis of suicidal thoughts among adolescents. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76

27. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. Academicia globe: inderscience research volume: 3, issue 1, january-2022 39-42
28. Elov Z.S. Researches of the Reasons Conditions, Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive Volume 5 Number 1. 2016. 49-53
29. Elov.Z.S. Қадимги халқлар урф-одатлари ва ривожланган жамиятда ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологияк сабаблари. Тарих ва бугун (қадимги халқлар урф-одатлари ва бугунги замон) Jamiyat va innovasiyalar. 10.2021 169-173.
30. F.F.Usmonov, Z.S.Elov. Suicide – as a global problem facing humanity. Web of scientist: international scientific research journal. Volume 3, Issue 2, Feb., 2022. 349-354